



1- laboratoriya ishi

I. Karbonatlar va gidrokarbonatlarning xossalari va bir-biriga aylanishi bilan tanishish

1. Yangi tayyorlangan 2—3 *ml* ohakli suv eritmasidan uglerod (IV)-oksidni o'tkazing.
2. Eritmadan uglerod (IV)-oksid o'tkazishni davom ettiring.
3. Tiniq eritmali probirkani qaynating.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq:

1. Ohakli suvdan uglerod (IV)-oksid o'tkazilganda u nima uchun loyqalanadi?
2. Uglerod (IV)-oksid o'tkazish davom ettirilganda eritma nima uchun yana tiniq bo'lib qoladi?
3. Bu eritma qizdirilganda nima uchun cho'kma hosil bo'lishini tushuntiring.
4. Tegishli reaksiyalarning tenglamalarini molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli ko'rinishda yozing.

II. Karbonat ionigaxos sifat reaksiya

Bir probirkaga ozroq bor, ikkinchisiga magniy karbonat soling. Birinchi probirkaga 1—2 *ml* suyultirilgan xlorid kislota, ikkinchisiga shuncha suyultirilgan H_2SO_4 quying. Ikkala probirkaning og'zini gaz o'tkazgich nayi bor tiqinlar bilan berkiting, naylarning uchini ohakli suvi bor probirkaga tushirib qo'ying.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Bajarilgan tajribalarga asoslanib, qaysi reaksiyalar karbonat ioniga xos reaksiya ekanligi haqida xulosa chiqaring.